

**KRIPTOVALYUTALAR VA NFTLARGA OID NIZOLARNI
XALQARO ARBITRAJDA HAL ETISHNING
DOLZARB HUQUQIY MASALALARI**

Faxriddin Nekboyev

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Email: faxriddinnekbayev11@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Ilmiy rahbar: **Gulyamov Said Saidaxrorovich**

yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Toshkent davlat yuridik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

***Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi kriptovalyutalar va NFTlarning huquqiy tabiati, ularning turli davlatlar qonunchiligidagi huquqiy maqomi hamda virtual aktivlardan kelib chiqadigan nizolarni xalqaro arbitraj orqali hal etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, smart-kontraktning huquqiy xususiyatlari, "code is law" konsepsiyasining mazmuni, xalqaro arbitraj institutlari amaliyoti hamda arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish bilan bog'liq muammolar yoritilgan. Muallif tomonidan O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan ayrim takliflar ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar:** kriptovalyuta, NFT, virtual aktiv, blockchain, smart-kontrakt, xalqaro arbitraj, arbitrabillik, arbitraj kelishuvi, ICC, LCIA, SIAC, MiCA.*

**CURRENT LEGAL ISSUES OF RESOLVING
CRYPTOCURRENCY AND NFT DISPUTES
IN INTERNATIONAL ARBITRATION**

Faxriddin Nekboev

Master's Student, Tashkent State University of Law, Tashkent, Uzbekistan

Scientific Supervisor: **Gulyamov Said Saidakhrorovich**

Doctor of Law (DSc), Professor

Tashkent State University of Law

Tashkent, Uzbekistan

***Abstract:** This thesis examines the legal nature of cryptocurrencies and NFTs, their legal status in different jurisdictions, and the resolution of disputes arising from virtual assets through international arbitration. Particular attention is paid to smart contracts, the “code is law” concept, the practice of leading international arbitration institutions, and the challenges associated with the recognition and enforcement of arbitral awards involving digital assets. The paper also proposes several recommendations for improving the legislation of the Republic of Uzbekistan in this field.*

***Key words:** cryptocurrency, NFT, virtual asset, blockchain, smart contract, international arbitration, arbitrability, arbitration agreement, ICC, LCIA, SIAC, MiCA.*

**КРИПТОВАЛЮТЫ И NFT: АКТУАЛЬНЫЕ ПРАВОВЫЕ
ВОПРОСЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ В МЕЖДУНАРОДНОМ
АРБИТРАЖЕ**

Фахриддин Некбоев

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Email: faxriddinnekbayev11@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Научный руководитель: **Гулямов Саид Саидахарович**

доктор юридических наук (DSc), профессор

Ташкентский государственный юридический университет

Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В данной тезисной работе анализируются правовая природа криптовалют и NFT, их правовой статус в законодательстве различных государств, а также вопросы разрешения споров, возникающих из виртуальных активов, посредством международного арбитража. Также рассматриваются правовые особенности смарт-контрактов, содержание концепции «code is law», практика международных арбитражных институтов, а также проблемы признания и исполнения арбитражных решений. Автором выдвинуты отдельные предложения, направленные на совершенствование законодательства Республики Узбекистан.

Ключевые слова: криптовалюта, NFT, виртуальные активы, блокчейн, смарт-контракт, международный арбитраж, арбитрабельность, арбитражное соглашение, ICC, LCIA, SIAC, MiCA.

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari vujudga kelmoqda. Blockchain texnologiyasi asosida yaratilgan kriptovalyutalar va NFTlar (Non-Fungible Tokens) ana shunday innovatsion institutlar qatoriga kiradi. Ular nafaqat moliyaviy munosabatlar, balki

investitsiya faoliyati, elektron tijorat, intellektual mulk, raqamli san'at va xalqaro savdo sohalariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur aktivlarning transchegaraviy xususiyati ularni xalqaro xususiy huquq va xalqaro arbitraj nuqtai nazaridan alohida tadqiq etishni talab qiladi.

Virtual aktiv tushunchasi bugungi kunda xalqaro huquqiy muomalada keng qo'llanilayotgan kategoriyalardan biri hisoblanadi.¹ FATF tavsiyalariga ko'ra, virtual aktiv — qiymatning raqamli ifodasi bo'lib, u elektron shaklda savdo qilinishi, o'tkazilishi yoki investitsiya maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Ushbu tushuncha an'anaviy fiat valyutalar, qimmatli qog'ozlar va boshqa klassik moliyaviy instrumentlardan farq qiluvchi yangi turdagi mulkiy obyektlarni qamrab oladi. Shu sababli virtual aktivlar fuqarolik-huquqiy munosabatlarda alohida iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar sifatida qaralmoqda.

Kriptoalyuta virtual aktivlarning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. U kriptografik usullar yordamida himoyalangan, markazlashmagan blockchain tarmog'ida muomalada bo'ladigan va markaziy emitentga ega bo'lmagan raqamli aktivdir. 2008-yilda Satoshi Nakamoto tomonidan taklif etilgan Bitcoin modeli keyinchalik minglab boshqa kriptoaktivlarning yaratilishiga asos bo'ldi.² Kriptoalyutalarning asosiy xususiyati ularning markaziy bank yoki davlat organi nazoratidan tashqarida faoliyat yuritishidir. Aynan shu jihat ularni xalqaro moliyaviy munosabatlarda keng qo'llash imkonini yaratgan bo'lsa-da, huquqiy tartibga solish nuqtai nazaridan qator murakkab masalalarni yuzaga keltirmoqda.

¹ Financial Action Task Force (FATF). Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. — Paris: FATF, 2021. — 152 p.

² Nakamoto S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System // Bitcoin.org rasmiy sayti. URL: <https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>

Hozirgi kunda davlatlar kriptovalyutalarning huquqiy maqomini turlicha belgilamoqda. AQSh amaliyotida ko'plab kriptovalyutalar mulkiy aktiv sifatida e'tirof etiladi va soliq maqsadlarida mol-mulk sifatida baholanadi. Ayrim tokenlar esa investitsiya xarakteriga ega bo'lganligi sababli qimmatli qog'oz sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Yaponiya qonunchiligida kriptoaktivlar qonuniy elektron qiymat sifatida tan olinib, to'lov munosabatlarida qo'llanishiga ruxsat berilgan. Yevropa Ittifoqi esa 2023-yilda qabul qilingan MiCA (Markets in Crypto-Assets Regulation) reglamenti orqali kriptoaktivlar bozorini yagona huquqiy mexanizm asosida tartibga solishga kirishdi.³ Mazkur reglament kriptoaktivlar emitentlari va xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini nazorat qilishning umumiy standartlarini belgilab berdi.

NFTlar esa kriptovalyutalardan farqli ravishda o'zaro almashtirib bo'lmaydigan noyob raqamli aktivlar hisoblanadi. Agar Bitcoin yoki boshqa kriptovalyutalarning har bir birligi o'zaro teng qiymatga ega bo'lsa, NFT har bir tokenning alohida identifikatsiya qilinishi va takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Shu sababli NFTlar ko'pincha raqamli san'at asarlari, musiqa mahsulotlari, kompyuter o'yinlari obyektlari, virtual ko'chmas mulk va boshqa intellektual mulk obyektlarini tokenlashtirishda qo'llaniladi.

NFTlarning huquqiy tabiati yuzasidan ham yagona xalqaro yondashuv mavjud emas. Ayrim yurisdiksiyalarda ular mulkiy huquqlarni tasdiqlovchi raqamli sertifikat sifatida baholansa, boshqa davlatlarda intellektual mulk bilan bog'liq huquqlarni ifodalovchi token sifatida ko'riladi. Amaliyotda NFT egasi token

³ Regulation (EU) 2023/1114 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2023 on Markets in Crypto-Assets (MiCA). Official Journal of the European Union. — Brussels, 2023.

ustidan nazorat huquqiga ega bo'lsa-da, bu har doim ham token bilan bog'liq mualliflik huquqlari yoki eksklyuziv foydalanish huquqlari unga o'tishini anglatmaydi. Aynan shu holat NFTlarga oid nizolarning murakkablashishiga sabab bo'lib, ko'plab hollarda arbitraj va sud amaliyotida qo'shimcha talqinlarni talab etadi.

Shunday qilib, kriptovalyutalar va NFTlar zamonaviy raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Biroq ularning huquqiy maqomi turli davlatlarda bir xil emasligi, virtual aktivlarning transchegaraviy tabiati va blockchain texnologiyasining markazlashmagan xarakteri ushbu sohadagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Aynan shu omillar virtual aktivlar bilan bog'liq nizolarni xalqaro arbitraj orqali hal etish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Blockchain texnologiyasining rivojlanishi natijasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning yangi shakllari paydo bo'ldi. Ular orasida eng muhim institutlardan biri smart-kontraktlar hisoblanadi. Mazkur texnologiya an'anaviy shartnomaviy munosabatlarni avtomatlashtirish imkoniyatini yaratib, taraflarning majburiyatlarini vositachilarsiz bajarishga xizmat qilmoqda. Biroq smart-kontraktlarning keng qo'llanilishi bilan bir qatorda ularning huquqiy maqomi, arbitrajga taalluqliligi va ulardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bilan bog'liq qator masalalar ham yuzaga kelmoqda.

Smart-kontrakt atamasi ilk bor amerikalik olim Nick Szabo tomonidan 1990-yillarda ilgari surilgan bo'lib, u shartnoma shartlarini dasturiy kod shaklida

ifodalash va ularni avtomatik ravishda bajarish g'oyasiga asoslangan.⁴ Zamonaviy blockchain tizimlarida smart-kontraktlar ma'lum shartlar yuzaga kelganda avtomatik tarzda ishga tushadigan algoritmlar majmui sifatida faoliyat yuritadi. Ularning asosiy afzalligi inson omilini kamaytirish, bitim xarajatlarini qisqartirish va majburiyatlarning bajarilishini kafolatlash imkoniyatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, smart-kontraktarning huquqiy tabiati yuzasidan ilmiy doiralarda yagona yondashuv mavjud emas. Bir guruh olimlar smart-kontraktlarni mustaqil shartnoma sifatida baholasa, boshqalari ularni mavjud fuqarolik-huquqiy shartnomalarni amalga oshirish vositasi sifatida talqin qiladi. Amaliyotda esa smart-kontrakt ko'pincha taraflarning oldindan erishilgan kelishuvini texnik jihatdan bajaruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Chunki har qanday shartnoma uchun zarur bo'lgan iroda erkinligi, huquq va majburiyatlarning mazmuni, javobgarlik masalalari ko'pincha dasturiy koddan tashqarida shakllanadi.

Blockchain asosidagi munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarning arbitrajda ko'rib chiqilishi masalasi arbitrabillik instituti bilan chambarchas bog'liqdir. Arbitrabillik muayyan nizoning arbitraj muhokamasi predmeti bo'lishi mumkinligini anglatadi. Xalqaro arbitraj amaliyotida, odatda, mulkiy va tijorat xarakteridagi nizolar arbitrabillikka ega deb hisoblanadi. Kriptovalyutalar, tokenlar, NFTlar va smart-kontraktlardan kelib chiqadigan aksariyat nizolar ham iqtisodiy mazmunga ega bo'lgani sababli arbitrajda ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan nizolar toifasiga kiradi.

Biroq blockchain muhitida arbitraj kelishuvining mavjudligini aniqlash ayrim hollarda murakkablashadi. An'anaviy arbitraj huquqida arbitraj kelishuvi

⁴ Szabo N. Smart Contracts: Building Blocks for Digital Markets. — 1996.

yo'zma shaklda tuzilishi va taraflarning arbitrajga murojaat qilish bo'yicha aniq roziligini aks ettirishi talab etiladi. Smart-kontraktlarda esa bunday rozilik dasturiy kod ichida ifodalanishi yoki elektron shaklda tasdiqlanishi mumkin. Shu sababli ko'plab yurisdiksiyalarda elektron shakldagi arbitraj bitimlarini tan olish va ularning haqiqiylikini baholash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, markazlashmagan blockchain platformalarida taraflarning haqiqiy identifikatsiyasini aniqlash arbitraj jarayonining muhim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Smart-kontraktlar bilan bog'liq huquqiy munozaralarning markazida "code is law" ("kod — qonun") konsepsiyasi turadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, blockchain tizimida dasturiy kodning o'zi huquqiy normalar vazifasini bajaradi va taraflar o'rtasidagi munosabatlarni avtomatik ravishda tartibga soladi. Ushbu yondashuvning tarafdorlari kod inson omilidan holi bo'lgani sababli huquqiy noaniqliklarni kamaytirishini ta'kidlaydi. Biroq huquqshunoslar tomonidan ushbu konsepsiya keskin tanqid qilinmoqda.

Birinchi, dasturiy kod barcha huquqiy holatlarni oldindan nazarda tuta olmaydi. Ikkinchi, shartnomani haqiqiy emas deb topish, firibgarlik, aldash, xato yoki majburiy ta'sir ostida tuzilgan bitimlar kabi huquqiy institutlarni kod orqali to'liq tartibga solish imkonsizdir. Uchinchi, kodda yo'l qo'yilgan xatolar jiddiy moliyaviy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunga 2016-yilda sodir bo'lgan mashhur "The DAO Hack" hodisasi misol bo'la oladi.⁵ Mazkur voqea smart-kontrakt kodidagi zaiflikdan foydalanish natijasida millionlab dollar qiymatidagi

⁵ DuPont Q. Experiments in Algorithmic Governance: A History and Ethnography of "The DAO", a Failed Decentralized Autonomous Organization // Bitcoin and Beyond: Cryptocurrencies, Blockchains and Global Governance. — London: Routledge, 2017. — P. 157–177.

kriptoaktivlar noqonuniy ravishda o'tkazib yuborilgan va bu holat blockchain hamjamiyatida kodning mutlaq ustuvorligini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lgan.

Shu sababli zamonaviy huquqiy yondashuvlarda "code is law" konsepsiyasidan ko'ra "law governs code" tamoyili ustunlik qilmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, smart-kontraktlar va blockchain texnologiyasi huquqiy tartibga solishdan mustasno bo'lishi mumkin emas. Aksincha, ular amaldagi shartnoma huquqi, arbitraj huquqi va xalqaro xususiy huquq normalari bilan uyg'un holda qo'llanilishi lozim.

Demak, smart-kontraktlar blockchain iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, arbitraj amaliyoti oldiga ham yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ularning huquqiy maqomini aniq belgilash, elektron arbitraj kelishuvlarining haqiqiylikini tan olish hamda smart-kontraktlardan kelib chiqadigan nizolarni samarali hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish xalqaro arbitraj huquqining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Kriptoalyutalar, NFTlar va boshqa virtual aktivlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda keng qo'llanilishi natijasida ular bilan bog'liq nizolar soni ham ortib bormoqda. Ushbu nizolarning aksariyati transchegaraviy xususiyatga ega bo'lib, turli davlatlar rezidentlari, kriptobirjalar, token emitentlari va investorlar o'rtasida yuzaga keladi. Mazkur holatda milliy sudlar yurisdiksiyasining cheklanganligi hamda turli davlatlar qonunchiligi o'rtasidagi tafovutlar xalqaro arbitrajning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Arbitrajning moslashuvchanligi, maxfiylikni ta'minlashi va xalqaro miqyosda tan olinadigan qarorlar chiqarish imkoniyati uni virtual aktivlar sohasidagi nizolarni hal etishning eng maqbul vositalaridan biriga aylantirmoqda.



So'nggi yillarda yetakchi xalqaro arbitraj institutlari ham raqamli iqtisodiyot talablariga moslashib bormoqda. Xususan, International Chamber of Commerce (ICC) amaliyotida blockchain texnologiyasi, fintech loyihalari va virtual aktivlarga oid murakkab tijorat nizolarining soni ortib bormoqda. ICC arbitraj qoidalarining moslashuvchanligi texnologik xarakterdagi nizolarni samarali ko'rib chiqish imkonini bermoqda. Ayniqsa, xalqaro investitsiyalar, token emissiyasi va raqamli platformalar bilan bog'liq nizolar arbitraj amaliyotida tobora ko'proq uchramoqda.

Shuningdek, London Court of International Arbitration (LCIA) ham texnologik va moliyaviy innovatsiyalar bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish bo'yicha katta tajribaga ega. London xalqaro moliya markazi sifatida faoliyat yuritayotgani sababli kriptofaktivlar bilan bog'liq ko'plab tijorat munosabatlari aynan ushbu yurisdiksiya bilan bog'lanadi. LCIA amaliyoti virtual aktivlarning huquqiy maqomini aniqlash, arbitraj kelishuvlarining haqiqiylikini baholash va zarar miqdorini hisoblash bilan bog'liq masalalarda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Osiyo mintaqasida esa Singapore International Arbitration Centre (SIAC) raqamli texnologiyalar va blockchain bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqishda yetakchi institutlardan biriga aylanmoqda. Singapur hukumati tomonidan fintech va virtual aktivlar sohasiga nisbatan olib borilayotgan progressiv siyosat SIACning ushbu yo'nalishdagi rolini yanada kuchaytirmoqda. SIAC qoidalarining zamonaviy biznes ehtiyojlariga moslashganligi va tezkor arbitraj mexanizmlarining mavjudligi uni kriptofaktivlar bozorining ko'plab ishtirokchilari uchun jozibador arbitraj markaziga aylantirgan.

Shunga qaramay, virtual aktivlarga oid arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish masalasi hozirgi kunda eng murakkab huquqiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur masalada 1958-yildagi Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards muhim xalqaro-huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu konvensiya arbitraj qarorlarining aksariyat davlatlarda tan olinishi va ijro etilishini ta'minlaydi. Biroq blockchain texnologiyasining markazlashmagan tabiati sababli kriptoaktivlar ustidan ijro harakatlarini amalga oshirish amaliyotda bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Avvalo, kriptohamyonlar egalarining anonim yoki psevdonim shaklda faoliyat yuritishi qarzdor shaxsni aniqlashni murakkablashtiradi. Bundan tashqari, kriptoaktivlarning muayyan davlat hududiga bog'lanmaganligi ularning joylashgan manzilini aniqlash masalasini ham dolzarb qilib qo'yimoqda. Natijada arbitraj qarorini chiqarish nisbatan oson bo'lsa-da, uni amalda ijro etish ko'pincha murakkab huquqiy va texnik choralarni talab qiladi. So'nggi yillarda ayrim davlatlar sudlari tomonidan kriptoaktivlarni muzlatish, elektron hamyonlarga nisbatan taqiq choralarini qo'llash va virtual aktivlarni mol-mulk sifatida e'tirof etish bo'yicha yangi amaliyot shakllanmoqda. Bu esa kelgusida arbitraj qarorlarini ijro etish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ham virtual aktivlar bozorini rivojlantirish va tartibga solish bo'yicha muhim normativ-huquqiy baza shakllantirilmoqda. Biroq kriptoaktivlar bilan bog'liq nizolarni arbitraj tartibida ko'rib chiqish masalalari hali to'liq tartibga solingan deb bo'lmaydi. Shu munosabat bilan bir qator takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchiidan, “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi⁶ Qonunga smart-kontraktlar va elektron shaklda tuzilgan arbitraj bitimlarining yuridik kuchini aniq belgilovchi normalarni kiritish maqsadga muvofiq. Bu virtual muhitda tuzilgan bitimlarning arbitrajda himoya qilinishiga xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, virtual aktivlar bilan bog‘liq nizolarning arbitrabilligi masalasini qonunchilik darajasida aniqlashtirish zarur. Bu arbitraj sudlari vakolatining chegaralarini belgilash hamda huquqni qo‘llash amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Uchinchiidan, arbitraj qarorlarini ijro etish jarayonida kriptofaktivlarni aniqlash, hisobga olish va ularga nisbatan undiruv qaratish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Mazkur yo‘nalishda xalqaro tajriba va ilg‘or xorijiy amaliyotdan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

To‘rtinchiidan, xalqaro arbitraj, blockchain texnologiyasi va virtual aktivlar huquqi sohasida ixtisoslashgan ekspertlar hamda arbitrlardan iborat professional kadrlar bazasini shakllantirish zarur. Chunki mazkur nizolar o‘zining murakkab texnik va huquqiy xususiyatlari bilan an‘anaviy tijorat nizolaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro arbitraj institutlari kriptofaktivlarga oid nizolarni hal etishning samarali mexanizmi sifatida shakllanib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan ushbu sohadagi nizolar soni ortishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Shu sababli xalqaro tajribani o‘rganish, arbitraj amaliyotini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish va milliy qonunchilikni

⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonuni. 16.02.2021 y. O‘RQ–674-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.02.2021-y., 03/21/674/0125-son.

takomillashtirish virtual aktivlar bozorining huquqiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida kriptovalyutalar, NFTlar va boshqa virtual aktivlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu jarayon bilan bir qatorda virtual aktivlar muomalasi, smart-kontraktlarning bajarilishi, tokenlar ustidan mulkiy huquqlar va blockchain platformalari faoliyati bilan bog'liq nizolar soni ham muntazam ortib bormoqda. Mazkur nizolarning aksariyati transchegaraviy xususiyatga ega bo'lib, ular bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlar huquqiy tizimlari bilan bog'lanadi. Shu sababli bunday nizolarni an'anaviy sud tartibida hal etish har doim ham yetarli darajada samarali natija bermaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro arbitraj virtual aktivlar bilan bog'liq nizolarni hal etishning eng maqbul va istiqbolli mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Arbitrajning moslashuvchanligi, protsessual mustaqilligi, maxfiylikni ta'minlashi hamda arbitraj qarorlarining xalqaro miqyosda tan olinishi va ijro etilishi imkoniyati uni kriptoaktivlar bozorining ishtirokchilari uchun qulay huquqiy vositaga aylantiradi. Ayniqsa, smart-kontraktlar, NFTlar va blockchain asosidagi loyihalardan kelib chiqadigan murakkab texnologik nizolarni hal etishda arbitrajning afzalliklari yaqqol namoyon bo'lmoqda. ICC, LCIA va SIAC kabi yetakchi arbitraj institutlari amaliyoti ham ushbu yo'nalishning istiqbolli ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, virtual aktivlarning huquqiy maqomi, smart-kontraktlarning yuridik kuchi, arbitraj kelishuvlarining elektron shaklda tuzilishi hamda arbitraj

qarorlarini blockchain muhitida ijro etish bilan bog'liq qator masalalar hanuzgacha to'liq yechim topmagan. Bu esa xalqaro hamjamiyat tomonidan yagona yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham virtual aktivlar bozorini rivojlantirish va huquqiy tartibga solish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq raqamli iqtisodiyotning zamonaviy talablaridan kelib chiqib, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida yanada takomillashtirish zarur. Xususan, smart-kontraktarning huquqiy maqomini belgilash, virtual aktivlarga oid nizolarning arbitrabilligini aniqlashtirish, elektron arbitraj kelishuvlarini tan olish hamda arbitraj qarorlarini ijro etishning samarali mexanizmlarini yaratish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, virtual aktivlar va blockchain texnologiyalarining kelgusidagi rivojlanishi xalqaro arbitrajning ushbu sohadagi rolini yanada kuchaytiradi. Shu sababli virtual aktivlar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni xalqaro standartlar asosida tartibga solish, arbitraj institutlari amaliyotini rivojlantirish hamda milliy qonunchilikni zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish huquqiy barqarorlik va investitsiyaviy ishonchni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1.1. O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.02.2021-y., O'RQ-674-son.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PF–3832-son “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PQ–214-son “Kripto-aktivlar aylanmasi sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.4. Regulation (EU) 2023/1114 of the European Parliament and of the Council of 31 May 2023 on Markets in Crypto-Assets (MiCA).

II. Xalqaro huquqiy hujjatlar

2.1. Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York Convention). New York, 1958.

2.2. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration. United Nations Commission on International Trade Law. New York, 1985 (amended in 2006).

2.3. FATF Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. Paris: Financial Action Task Force, 2021.

2.4. UNIDROIT. Principles on Digital Assets and Private Law. Rome: International Institute for the Unification of Private Law, 2023.

III. Kitob va monografiyalar

3.1. Nakamoto S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. – 2008. – 9 p.

3.2. Szabo N. Smart Contracts: Building Blocks for Digital Markets. – 1996.

3.3. De Filippi P., Wright A. Blockchain and the Law: The Rule of Code. – Cambridge: Harvard University Press, 2018. – 312 p.

3.4. Mougayar W. The Business Blockchain: Promise, Practice and Application of the Next Internet Technology. – Hoboken: Wiley, 2016. – 224 p.

3.5. Drescher D. Blockchain Basics: A Non-Technical Introduction in 25 Steps. – New York: Apress, 2017. – 255 p.

IV. Ilmiy maqolalar va davriy nashrlar

4.1. Werbach K. Trust, But Verify: Why the Blockchain Needs the Law // Berkeley Technology Law Journal. – 2018. – Vol. 33. – P. 489–550.

4.2. Fairfield J. BitProperty // Southern California Law Review. – 2015. – Vol. 88. – P. 805–874.

4.3. Raskin M. The Law and Legality of Smart Contracts // Georgetown Law Technology Review. – 2017. – Vol. 1. – P. 305–341.

4.4. Clack C., Bakshi V., Braine L. Smart Contract Templates: Foundations, Design Landscape and Research Directions // ArXiv. – 2017.

4.5. Reisman M., Smith J. Cryptocurrency Arbitration: A New Frontier in International Dispute Resolution // Journal of International Arbitration. – 2020. – Vol. 37. – No. 2.

V. Internet resurslari

5.1. FATF rasmiy sayti: <https://www.fatf-gafi.org>

5.2. UNCITRAL rasmiy sayti: <https://uncitral.un.org>

5.3. UNIDROIT rasmiy sayti: <https://www.unidroit.org>

5.4. ICC International Court of Arbitration rasmiy sayti: <https://iccwbo.org>

5.5. LCIA rasmiy sayti: <https://www.lcia.org>

5.6. SIAC rasmiy sayti: <https://www.siac.org.sg>



5.7. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi:
<https://lex.uz>